



SPIRITUALITY OF STUDENT YOUTH AND THE ISSUE OF FREE TIME

Akmal Khaitov

Acting Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD)

University of Business and Science

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Student youth, spirituality, leisure time, intellectual development, social activity, globalization, targeted activity

Received: 18.03.25

Accepted: 20.03.25

Published: 22.03.25

Abstract: This article philosophically substantiates the importance of students' spirituality and leisure time in shaping society's intellectual potential. The author's personal reflections on the fact that meaningful leisure is one of the main factors in the spiritual development, intellectual growth, and increase of social activity of young people are presented. In the context of today's globalization, it is important to effectively organize students' leisure time and involve them in science, art, sports, and social projects. Because it has been shown with examples that spiritual poverty and aimless spending of time lead to indifference and social crises among young people. Therefore, it is emphasized that educational institutions and society should ensure the spiritual growth of young people by effectively managing their free time.

TALABA-YOSHLARNING MA'NAVIYATI VA BO'SH VAQT MASALASI

Akmal Xayitov

dotsenti v.b. falsafa doktori (PhD)

University of Business and Science

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Talaba yoshlar, ma'naviyat, bo'sh vaqt, intellektual rivojlanish, ijtimoiy faollik, globallashuv, maqsadli faoliyat, ta'lim muassasalari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada, talaba-yoshlarning ma'naviyati va bo'sh vaqt masalasi jamiyatning intellektual salohiyatini shakllantirishda muhim o'rin tutishi falsafiy jihatdan asoslab berilgan. Bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish – yoshlarning ma'naviy rivojlanishi, intellektual o'sishi va ijtimoiy

faolligini oshirishning asosiy omillaridan biri ekanligi haqida muallifning shaxsiy mulohazalari keltirilgan. Bugungi globallashuv sharoitida talabalarining bo'sh vaqtini samarali tashkil etish, ularni ilm-fan, san'at, sport va ijtimoiy loyihalarga jalb etish muhimdir. Chunki ma'naviy qashshoqlik va maqsadsiz vaqt sarflash yoshlarda befarqlik va ijtimoiy inqirozlarga olib kelishi misollar bilan ko'rsatib berilgan. Shunday ekan, ta'lim muassasalari va jamiyat yoshlarning bo'sh vaqtini samarali boshqarish orqali ularning ma'naviy yuksalishini ta'minlashi lozimligi ta'kidlangan.

ВОПРОСЫ ДУХОВНОСТИ И СВОБОДНОГО ВРЕМЕНИ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ

Акмал Хайитов

и.о. доцент, доктора философии (PhD)

University of Business and Science

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Студенческая молодежь, духовность, досуг, интеллектуальное развитие, социальная активность, глобализация, целенаправленная деятельность

Аннотация: В данной статье философски обосновано, что вопрос духовности и досуга студенческой молодежи играет важную роль в формировании интеллектуального потенциала общества. Приведены личные мнения автора о том, что содержательное проведение свободного времени является одним из основных факторов духовного развития, интеллектуального роста и повышения социальной активности молодежи. В условиях современной глобализации важно эффективно организовывать свободное время студентов, привлекать их к науке, искусству, спорту и социальным проектам. Потому что на примерах показано, что духовная нищета и бесцельное времяпрепровождение приводят к безразличию и социальным кризисам у молодежи. Поэтому подчеркивается, что образовательные учреждения и общество должны обеспечивать духовное развитие молодежи путем эффективного управления ее досугом.

Kirish. Hozirgi kunda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarining ma'naviyat va ma'naviy taraqqiyot jarayoni bilan uyg'unlashuvi ortib bormoqda. «Ma'naviyat» tushunchasi jamiyat hayotidagi mafkuraviy, nazariy, ilmiy-ma'rifiy, madaniy, diniy hamda axloqiy qarashlarni to'liq o'z ichiga oladi. Shu bois, bu mavzuda fikr yuritganda ushbu qarashlarning barchasini birlashtirib, keng qamrovli «ma'naviyat» tushunchasi orqali izohlash mumkin.

O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.Karimov «Ma'naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir»[1:19] deb ta'riflagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev «Biz uchun ma'naviyat – insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir»[2:276] deb ta'riflaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.Erkayevning fikriga ko'ra «Ma'naviyat-bu ijtimoiy ongning e'tiqod va qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan sobit ehtirolari, tushunchalari, me'yorlari, ijtimoiy mo'ljallari, ideallaridir, ularning madaniy merosda, urf-odatlarida aks etishi, millatga muayyan maqsadlarga erishish uchun yordam beradigan, milliy irodasi hamda jamiyatda qaror topgan aqliy va hissiy, ruhiy va mafkuraviy muhitdir»[3:480] degan qarashlarni ilgari surgan.

M.Imomnazarov va M.Eshmuhammedovalarning «Milliy ma'naviyatimiz asoslari» kitobida «Ma'naviyat inson qalbida, ko'ngil ko'zgusida aks etgan haqiqat nuridir»[4:316] deb ta'kidlangan.

S.Otamurodov, J.Ramatov, S.Husanovlarning «Ma'naviyat asoslari» ma'ruzalar matnida «Ma'naviyat insonning ruhiyatini, uning o'z-o'zini anglashi, didi, farosati, adolat bilan razillikni, yaxshilik bilan yomonlikni, go'zallik bilan xunuklikni, vazminlik bilan johillikni ajrata bilish qobiliyatini, aql-zakovatini, yuksak maqsad va g'oyalarni qo'ya bilish, ularni amalga oshirish uchun harakat qilish va intilish salohiyatidir»[5:320] deb ta'riflanadi.

Tahlil va natijalar. Bunday turlicha yondashuvlar va ta'riflarning ko'pligi ma'naviyatning ko'lami kengligi, murakkab tizim ekanligidan kelib chiqadi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi unda faoliyat ko'rsatayotgan kishilarning ma'naviy kamolotida ham yangi davrning yuzaga kelishini anglatadi. Ma'naviyatsiz yuksalish imkoniyatiga ega bo'lgan adolatli jamiyat bo'lmaganidek, jamiyatsiz ma'naviyatni ham tasavvur qilish mumkin emas.

Hatto, «Ma'naviyat orqali inson tabiat va jamiyat bilan bir butunlikni tashkil qiladi, uyg'unlashadi. Insonning tabiatga va jamiyatga ijobiy ta'siri ma'naviyatga, salbiy ta'siri esa undagi kamchiliklarga bog'liq»[6:155].

Bizning fikrimizcha ma'naviyat tushunchasining mohiyatini kengroq ochib berishda quyidagilarga kengroq e'tibor bermoq kerak:

Birinchidan, insonning insonligi uning moddiy hayot sharoitlaridagina emas, balki yuksak ma'naviyat sohibi ekanligida, zohiriy va botiniy dunyosining chinakam go'zalligida, boyligida hamdir. Inson qanday faoliyatni amalga oshirmasin uning asosini fikr, g'oya, bilim, qobiliyat sifatida shakllangan ma'naviyat tashkil etadi.

Ikkinchidan, mamlakatimizda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar jarayoni, eng avvalo, kishilarning yuksak madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga, odamlar ongining rivojlanish darajasiga va tafakkurining kengligiga asoslanadi. Biz qurayotgan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining kelajagi o'z mehnati va intellektual salohiyatini to'la baxshida etishga hamisha tayyor turgan ma'naviy – axloqiy barkamol insonlarga bog'liqdir.

Uchinchidan, huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyatini qurish uchun umuminsoniy qadriyatlarni ijodiy o'rganish bilan birga milliy o'ziga xosligimizni, an'analarimizni, urf-odatlarimizni saqlash, yuksaltirib borish muhim ahamiyatga egadir.

Bizning fikrimizcha, ma'naviyat quyidagi uch tarkibiy qismni o'z ichiga oladi:

- 1) Bilim, ilm, iste'dod va qobiliyat;
- 2) Vijdon, axloq, odob, imon va e'tiqod;
- 3) Bilim, imon va e'tiqod asosiga quriladigan turmush tarzi va faoliyat.

Ana shularni hisobga olgan holda, ma'naviyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin. «Ma'naviyat – insonning jamiyat hayotiga va tabiatga bo'lgan munosabatini belgilovchi ijtimoiy-aqliy-ruhiy omil, uning o'z ruhiy olami, aqliy va jismoniy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun ongli faoliyatga yo'naltiruvchi kuchdir».

Ma'naviyat o'z navbatida ma'rifat bilan uyg'un holatda rivojlanadi. Ma'rifat-inson faoliyatining bilimlarni egallash va jamiyatning ta'lim-tarbiyaga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan sohasi bo'lib, ma'naviyat bilan qo'shilgandagina o'tmish, bugungi kun, kelajakni bir-biriga bog'lash imkoniyati paydo bo'ladi. Shuning uchun ham ma'naviy-ma'rifiy tarbiya sifatida ularni birga olib borish davr taqozosidir.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda ma'naviyatning jamiyat hayotida bajaradigan ijtimoiy vazifalari, ma'naviy tarbiyaning mohiyatini to'g'ri anglash ham alohida ahamiyatga egadir.

A.Erkaev fikriga ko'ra, «ma'naviyatning ijtimoiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) millatni muhofaza qilish;

b) o'tmishga, bugunga va kelajakka oid hodisalarga baho berish, bu baholarning mezonlari va me'yorlarini belgilash (aksiologik vazifa);

- v) jamiyatni va alohida shaxslarni muayyan hayotiy pozitsiyani egallashga undash;
- g) millatni taraqqiyotga, alohida shaxsni takomillashishga rag'batlantirish;
- d) insonning o'z shaxsiyati bilan ayniyatda yashashini, inson tabiatining rivojlanishi, takomillashishini ta'minlash;
- e) kishilar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish (axloqiy va huquqiy me'yorlar orqali);
- j) insonning tabiat va jamiyat bilan uyg'unligini ta'minlash»[7:56].

Ushbu fikrga qo'shilgan holda, ma'naviyatning jamiyat hayotida bajaradigan ijtimoiy vazifalari inson kamoloti, inson va jamiyat, inson, shaxs va jamiyat, inson va tabiat munosabatlari nuqtai-nazaridan yanada kengroq vazifalarni bajarishini ta'kidlamok kerak. Ayniqsa, ma'naviy, mafkuraviy tazyiqlar o'tkazish xavfi yanada kuchayib borayotgan bugungi kunda ushbu vazifalar ko'lami kengayib borishini unutmaslik zarurdir.

Bizningcha ushbu holatlarni hisobga olgan holda ma'naviyatning ijtimoiy vazifalarini adaptiv, interaktiv, tarbiyaviy, o'z-o'zini himoya qilish, insonparvarlik, qadriyatlarga munosabat, iqtisodiy - ekologik, tartibga soluvchilik yo'nalishlariga ko'ra ajratib ko'rsatish maqbulroqdir:

- ma'naviyatning adaptiv vazifasi insonning muayyan kasbiy munosabatlar tizimiga kirishishi, jamoada faoliyat ko'rsatishi, amalda bo'lgan kasbiy, ijtimoiy-psixologik va madaniy shart-sharoitlarga tez moslashishga yordam beradi;
- interaktiv vazifasi kasbiy-ma'naviy aloqalar va muloqotlar orqali jamoada ishonchli munosabat o'rnatish, samarali faoliyat ko'rsatishga imkoniyat yaratadi;
- tarbiyaviy vazifasi shaxs va jamoaning uzluksiz va izchil aloqasi orqali namoyon bo'ladi;
- o'z-o'zini himoya qilish vazifasi shunda namoyon bo'ladiki, inson o'zining yaxlit ichki dunyosi tizimini yaratib, ushbu tizim uchun xavfli bo'lgan ta'sirlarga qarshi kurashadi;
- insonparvarlik vazifasi umuminsoniy manfaatlarga, inson hayotining qadr-qimmati va daxlsizligiga qarab mo'ljal olishga yo'naltirishdan iborat;
- qadriyatlarga munosabatni shakllantirish vazifasi: **birinchidan**, avvaldan shakllangan va e'tirof etilgan qadriyatlar yordamida mo'ljal olish imkonini beradi, **ikkinchidan**, u yoki bu qadriyatlarni erkin tanlash, ularni yaratish va shakllantirish uchun imkoniyat yaratadi, **uchinchidan**, shaxsning o'z-o'zini takomillashtirish subyektiga aylanishiga yordamlashadi;
- iqtisodiy-ekologik vazifasi: iste'mol jarayonida tejamkorlik, tabiiy resurslar va mablag'lar isrofini mumkin qadar kamaytirish va odamlar ehtiyojlarini aqlga muvofiqlashtirishda ko'rinadi;
- tartibga soluvchilik vazifasi barcha munosabatlarni mavjud me'yorlar yordamida va vositasida tartibga solishda ko'rinadi;

Ko'pgina ilmiy adabiyotlarda ta'kidlab o'tilgan fikrlarni umumlashtirgan holda ta'kidlash mumkinki shaxs ma'naviyatining shakllanish jarayoni quyidagi uchta asosiy bosqichdan o'tadi:

- dastlabki bosqichda ma'naviyatning asoslari shakllantirilib, bunda shaxsning o'z-o'ziga murojaat etishi, o'zini bilishi va o'zini o'rganishi yuz beradi. U o'z ma'naviy fazilatlarini rivojlantirish lozimligini anglab yetadi, yanada barkamol ma'naviy borliq sari intila boshlaydi, uning ma'naviy ehtiyojlari dolzarblashadi, oliy, umuminsoniy qadriyatlar va axloqiy me'yorlarga o'z e'tiborini qaratadi. Shaxs jamiyatda yaratilgan ma'naviy-axloqiy me'yorlarni faol o'zlashtiradi. Bu bosqich ma'naviy qadriyatlarni o'zlashtirish bosqichidir;

- ikkinchi bosqich-ma'naviy qadriyatlarni iste'mol qilish bosqichi bo'lib, shaxsning avvalgi bosqichda shakllangan ma'naviy fazilatlari va mo'ljallarining shunday darajasiki, u faol ijtimoiy rolni bajarish imkoniyatini yaratadi;

- jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichi talablaridan kelib chiqib, barqaror ma'naviy qadriyatlardan va mo'ljallardan dadil foydalanadi, shakllangan ma'naviyat darajasiga ko'ra qarorlar qabul qila oladi;

- uchinchi bosqich - shaxsning o'z ma'naviy salohiyatini mumkin qadar to'la namoyon etuvchi bosqich bo'lib, ma'naviy yuksalishning oliy bosqichi hisoblanadi. Shaxs o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishgagina intilib qolmasdan o'z tajribasi va ma'naviy boyligini boshqalar bilan baham ko'radi, fikr almashadi. Demak bu bosqich ma'naviy qadriyatlarni yaratish va tarqatish bosqichidir.

Shundan xulosa qilish mumkinki, ma'naviy tarbiya inson ma'naviy olami, tafakkuri va dunyoqarashining millat va jamiyat talablari darajasida uzluksiz shakllantirilishi demakdir. Shuning uchun ham mamlakatimizda yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli jamiyat barpo etish masalasi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib, yuksak ma'naviyatli va ma'rifatli jamiyat barpo etish masalasi quyidagi omillarga bog'liqdir:

Birinchidan, bunday jamiyatni barpo etishda talaba-yoshlarning mazkur jarayonda bevosita ishtirok etishi masalasi, **ikkinchidan**, davlat tomonidan bunday jamiyat barpo etilishining ma'naviy va huquqiy asoslarning yaratib berilganligi, **uchinchidan**, barkamol avlodni tarbiyalashda yuksak ma'naviy fazilatlarning ustuvorligini ta'minlashga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Lekin, bugungi kunda madaniyat va oliy ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy tadbirlarni ham samarali tashkil etilyapti deb bo'lmaydi.

Bunda gap talaba-yoshlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda bugungi kundagi vaziyatni to'liq baholay olmayotganligimiz haqida ketmoqda. Shunday ekan ma'naviy shakllanish jarayonini to'g'ri belgilamas ekanmiz, bunday vaziyatda ularning virtual dunyoga

kirib qolish ehtimoli yanada ko'proq bo'ladi. Virtual dunyoda inson ma'naviy javobgarlikni his etmaydi, g'ayri odatiy o'zgarishlar ro'y beradi, tubanlik darajasiga tushish erkinlik sifatida qabul qilinadi.

Ayrim talaba-yoshlarimizning real dunyodan ajralib, virtual dunyoga tushib qolishining asosiy sabablari bizningcha quyidagilardan iboratdir:

Birinchidan, ular o'z mustaqil ma'naviy qiyofasiga ega bo'lmaganligi uchun, real dunyodan uzoqlashib borayotganligini sezmay qoladilar.

Ikkinchidan, bunday talaba-yoshlarda o'z-o'zini rivojlantirish ehtiyoji mavjud bo'lmaganligi uchun ularda ko'r-ko'rona ergashuvchanlik kayfiyati ustunlik qiladi.

Bu esa jamiyat va millat uchun eng xavfli vaziyatdir. Shuning uchun ham ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardagi asosiy vazifa o'z-o'zidan begonalashuv holatini bartaraf qilishga qaratilishi lozim. Agar biz har bir aniq shaxs tarbiyasi orqali talaba-yoshlar qalbini poklay olsakgina, ulardagi sog'lom ma'naviy ehtiyojni shakllantira olamiz.

Bizning nazarimizda talaba-yoshlarning ma'naviy dunyosida ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur:

Talaba-yoshlarning atrofimizda yuz berayotgan o'zgarishlar, voqea-hodisalarni tahlil qila olish asosida to'g'ri xulosa chiqara olish ko'nikmasini hosil qila bilish zarurligi;

Talaba-yoshlarning kelajakda munosib vorislar bo'lib yetishishi ulardagi ijtimoiy faollik darajasi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy faollik har bir insonning o'z maqsadiga erishishi yo'lida jamiyat manfaatlarini bilan o'z shaxsiy manfaatlarini uyg'unlashtirish qobiliyati bo'lib, unda tashabbuskorlikni shakllantiradi;

Talaba-yoshlar bilan ishlashda ularda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga alohida e'tibor berish lozim. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda uning tizimiga kiruvchi unsurlarni aniq hisobga olish zarur. Mafkuraviy immunitet tizimining eng asosiy va birinchi unsuri voqelikni obyektiv aks ettiruvchi, millat va insoniyat manfaatlarini bilan uzviy bog'liq bo'lgan bilimlardir. Mafkuraviy immunitetning ikkinchi unsuri obyektiv bilimlar asosida shakllangan baholar va qadriyatlar tizimi bo'lib, ular ushbu immunitetning imkoniyatlarini belgilaydi. Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liqdir. Ana shunday tizim mavjud bo'lmasa alohida inson, jamiyat yoki millat goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi qiyin bo'ladi;

Talaba-yoshlar ma'naviy ehtiyojini qondirish uchun ularning o'z ma'naviy bilim saviyasini oshirishga bo'lgan ehtiyojini, didini, uning darajasini, nimani o'qishga, tomosha qilishga, eshitishga bo'lgan xohish-istagini chuqur o'rganish muhimdir. Ushbu xohish-istaklarni hisobga

olish orqaligina ularga taqdim etish zarur bo'lgan bilimlarni tavsiya etish, talab va istaklarni e'tiborga olish va qondirish mexanizmini shakllantirish mumkin;

Ma'naviy ehtiyojni qisqa muddatda shakllantirish mumkin emas. Bunda u yoki bu asarning mohiyatini tashkil etuvchi g'oya masalasiga ko'proq e'tibor berish lozim.

Xulosa va takliflar. Talaba-yoshlar bo'sh vaqtini qanday sarflashlari ularning kelajakdagi hayot yo'nalishini belgilaydi. Agar bu vaqt faqat passiv dam olish yoki ma'nosiz ko'ngilxushlik bilan o'tsa, shaxsiy va intellektual rivojlanish sustlashadi. Aksincha, agar bo'sh vaqt ongli ravishda ilmiy izlanishlar, madaniy o'sish va ijodiy faoliyatga yo'naltirilsa, inson o'zining ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlar va virtual dunyo talabalarning bo'sh vaqtini egallab, ularning real hayotdagi ijtimoiy aloqalariga putur yetkazmoqda.

Ko'pgina yoshlar internetda ma'lum bir maqsadsiz ma'lumotlarni iste'mol qilish natijasida tafakkurini rivojlantirish o'rniga, shunchaki axborot oqimining passiv qabul qiluvchisiga aylanmoqda.

Ba'zi talabalar bo'sh vaqtni qanday o'tkazishni bilmaydi, chunki ularda aniq maqsad va yo'nalish yo'q. Bu esa ularda ichki ruhiy bo'shliqni yuzaga keltirishi mumkin.

Bo'sh vaqtning ideal shakllanishi uchun quyidagi tamoyillar asosida harakat qilish lozim.

- talabalar o'z bo'sh vaqlarini kitob o'qish, falsafiy tafakkurni rivojlantirish, san'at va ijod bilan shug'ullanish orqali mazmunli o'tkazishi;

- ko'ngilli ishlarda qatnashish, jamiyatga foydali bo'lish, yangi ko'nikmalar o'rganish;

- bo'sh vaqtdan unumli foydalanishning muhim yo'llaridan biridir. Sport, yoga va meditatsiya bilan shug'ullanish, sog'lom turmush tarzini olib borish.

- yangi g'oyalarni yaratish, startaplar ustida ishlash, ilmiy loyihalarda qatnashish.

Talaba-yoshlarning bo'sh vaqtini qanday o'tkazishi ularning kelajakdagi hayoti, dunyoqarashi va jamiyatdagi o'rnini belgilovchi omildir. Bo'sh vaqtni samarasiz sarflash hayot ma'nosini yo'qotishga olib kelishi mumkin, holbuki, uni maqsadli va ongli tashkil etish orqali inson o'zini mukammallashtira oladi. Bugungi talaba-yoshlar bo'sh vaqtini faqat hordiq chiqarish vositasi sifatida emas, balki o'z ustida ishlash va jamiyatga foydali bo'lish imkoniyati sifatida ko'rishi lozim. Bu esa ularni nafaqat shaxsiy muvaffaqiyat sari, balki jamiyatning intellektual va madaniy taraqqiyotiga ham yetaklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Uchinchi nashri. – Toshkent: «O'zbekiston». 2022. -267 b.

2. I.Karimov. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» ikkinchi nashr - Toshkent: «Ma'naviyat» 2011. -19 b.
3. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. - Toshkent: «Ma'naviyat». 2009. - 480 b.
4. Imomnazarov M., Eshmuhammedova M. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. – Toshkent: «Ma'naviyat». - 2007. - 316 b.
5. Otamurodov S., Ramatov J., Husanov S. Ma'naviyat asoslari. - Toshkent: «Ma'naviyat». 2000. – 320 b.
6. Quronboyev Q. Talabalarning ma'naviy – ijtimoiy faolliklarini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Kamolot yoshlar tashkiloti misolida): Ped. fan. nom. dis. – Toshkent: 2000. – 155 b.
7. Erkayev A. Ma'naviyat va taraqqiyot. - Toshkent: «Ma'naviyat» 2009. - 56 b.